

BODRINGNING ISTIQBOLLI “BARRA” NAVI: TAVSIFI VA QIMMATLI XO‘JALIK BELGILARI

Xalilov Shokir Xurramovich, mustaqil izlanuvchi,
ORCID: 0009-0004-3402-5668

Borasulov Akmal Mirayimovich, q.x.f.d.,
ORCID: 0009-0002-5208-3269

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Madartov Baxrom Kuvandikovich, q.x.f.d., professor

ORCID: 0009-0008-7558-0229
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bodringning ochiq yer maydonlarida etishtirish uchun mos “Barra” navining tavsifi va qimmatli xo‘jalik belgilari bayon etilgan. Ertapishar nav. Nihollari unib chiqqandan birinchi terimgacha bo‘lgan vaqt 40-41 kunni tashkil qiladi. Terim davrining davomiyligi 44-45 kun. Meva vazni 85-90 g, uzunligi 12-13 sm. Meva yuzasi to‘q yashil, yaltiroq rangda. Hosildorlik gektaridan 27,0-27,5 tonnaga teng.

Kalit so‘zlar: tizma, nav, onalik gul, otalik gul, texnik pishish, meva vazni, biologik pishish, insux, yakka tanlov.

Аннотация. В данной статье изложено описание перспективного сорта огурца «Барра», предназначенного для выращивания в открытом грунте, а также его ценные хозяйственные признаки. Сорт относится к раннеспелым. Период от появления всходов до первого сбора урожая составляет 40-41 день. Продолжительность периода плодоношения 44-45 дней. Масса плода 85-90 г, длина 12-13 см. Поверхность плодов тёмно-зелёная, глянцевая. Урожайность составляет 27,0-27,5 т/га.

Ключевые слова: линия, сорт, женских цветок, отцовский цветок, техническое созревание, масса плода, биологическое созревание, инсукт, индивидуальный отбор.

Abstract. This article presents the description of a promising cucumber variety “Barra” suitable for cultivation in open fields, along with its valuable agronomic characteristics. The variety is early-maturing. The period from seedling emergence to the first harvest is 40-41 days. The fruiting period lasts 44-45 days. The average fruit weight is 85-90 g, and the length is 12-13 cm. The surface of the fruit is dark green and glossy. The yield is 27,0-27,5 tons per hectare.

Key words: line, variety, female flower, male flower, technical maturation, fruit weight, biological maturation, inbreed, individual selection.

Kirish. Dunyoning bodring seleksiyasida (meva sifati yaxshi, yuqori hosildor, un shudring (*Erysiphe cichoracearum*) va soxta un shudring (*Pseudoperonospora cubensis*) kasalliklariga chidamli, salatbop va qayta ishlash uchun mos, onalik gullari ko‘p va partenokarpik) istiqbolli nav va duragaylarni yaratish hamda zamonaviy urug‘chilik tizimini tashkil etish asosiy ilmiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy markazlari, oliy o‘quv yurtlari va xususiy kompaniyalarida olib boriladi.

Bugungi kunda jahonning ko‘pgina mamlakatlarida bodringning ertapishar, qayta ishlash uchun mos, partenokarpik, onalik gullari ko‘p, meva sifati yaxshi, yuqori hosildor, kasalliklarga chidamli hamda noqulay iqlim sharoitlarga bardoshli yangi nav va duragaylarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari jadal davom ettirilmoqda.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida hm bodringning Xalqaro sabzavotchilik markazidan keltirilgan C-29 (♀) va Chili seleksiyasiga mansub L-6 (♂) sof tizmalarini Diallel usulda chatishtirish orqali “Barra” navi yaratilgan.

Seleksiya yutug‘i bodringning “Barra” navini qisqacha tavsifi va qimmatli xo‘jalik belgilari

Navning biologik belgilari. Ertapishar nav. Nihollari unib chiqqandan birinchi terimgacha bo‘lgan vaqt 40 kunni tashkil qiladi. Terim davrining davomiyligi 44-45 kun. Meva vazni 85-90

g, uzunligi 12-13 sm. Meva yuzasi to‘q yashil, yaltiroq rangda. Hosildorlik gektaridan 27,0-27,5 tonnaga teng.

Palagi determinant tipda bo‘lib, kam shoxlanish guruhiga mansub. Tupda onalik va otalik gullari mavjud bo‘lib, monoysiya jinsiga mansub. Naychadagi tuklari qora rangli. Gullarida partenokarpiklik mavjud emas.

Meva naychalari kalta va diametri kichik.

Mevasi to‘q yashil, yuzasi tekis, yaltiroq bo‘lakligi yo‘q. Meva bandi o‘rta uzunlikda. Degustatsion bahosi 4,5 ball. Mevalar uzilgandan so‘ng 3-4 kun davomida o‘z yashilligini saqlaydi (1-jadval).

Biologik yetilgan (urug‘lik) mevalarning rangi oq va to‘rlanishlari yo‘q.

Bir dona mevadani urug‘ chiqimi 72-80 dona bo‘lib, 1,6 grammni, 1000 ta urug‘ining vazni esa 21 grammni tashkil qiladi.

Navning soxta un shudring (*Plasmopora cubensis*) kasalligi bilan zararlanish darajasi 0,9 ballni, kasallikning tarqalishi 16 % ni va kasallikning rivojlanishi 34 % ni tashkil etadi.

Un shudring (*Erysiphe cichoracearum*) kasalligi bilan esa zararlanish darajasi 1,2 ballni, kasallikning tarqalishi 17 % ni va kasallikning rivojlanishi 21 % ga teng (1-jadval).

Yangi uzilgan mevalarida quruq modda miqdori 2,9 % ni, eruvchan quruq modda miqdori 3,6 % ni, qand miqdori 1,9 % ni, titrlanadigan kislotasi miqdori 0,17 % ni, C vitamin miqdori 16,9 mg/% ni va nitrat miqdori 58,0 mg/kg ni tashkil qiladi (2-jadval).

Bodringning "Barra" navini biokimyoviy tarkibi

Nav nomi	Quruq modda miqdori, %	Eruvchan quruq modda miqdori, %	Qand miqdori, %	Titrlanadigan kislota miqdori, %	C vitamin miqdori, mg/%	Nitrat miqdori, mg/kg
Barra	2,9	3,6	1,9	0,17	16,9	58,0

Bodringning "Barra" navini qimmatli xo'jalik va biologik xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Yangi nav nomi «BARRA»			
	2021 yil	2022 yil	2023 yil	o'rtacha
Pishish guruhi: ertapishar, o'rtapishar, kechpishar	ertapishar	ertapishar	ertapishar	ertapishar
Nihollar unib chiqqandan to birinchi terimgacha bo'lgan kun	39	41	40	40
Terim davri, kun (terim boshlanishi va tugashi)	46	45	43	45
Umumiy hosildorlik, t/ga	28,0	27,5	27,0	27,5
Degustatsion bahosi, ball:	4,4	4,6	4,5	4,5
yangi meva				
Nav xaqida qo'shimcha ma'lumotlar: mexanizatsiya yordamida yig'ishga yaroqliligi:	yaroqli	yaroqli	yaroqli	yaroqli
Yashilligini saqlash davomiyligi (kun)	4	3	3	3
Soxta un shudring (<i>Plasmopora cubensis</i>)				
Zararlanish darajasi, 0-4 ball	1,0	0,9	1,0	0,9
Kasallikning tarqalishi, %	10	21	18	16
Kasallikning rivojlanishi, %	20	22	20	34
Un shudring (<i>Erysiphe cichoracearum</i>)				
Zararlanish darajasi, 0-4 ball	0,7	0,6	1,2	1,2
Kasallikning tarqalishi, %	18	15	20	17
Kasallikning rivojlanishi, %	25	18	20	21



1-rasm. Bodringni «Barra» navi palagi va mevalari

Xulosa. Ochiq yer maydonlarida yetishtirish uchun mos bodringning "Barra" navi uzoq yillik selektsiya jarayonida yaratilgan bo'lib, chet eldan keltiriladigan bodring urug'lari o'rinda mahalliy selektsiyaga mansub navlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu nav soxta un shudring (*Plasmopora cubensis*) va un shudring (*Erysiphe cichoracearum*) kasalliklariga bardoshli va gektaridan 27,5 tonna yuqori sifatli hosil olinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Madartov B.K., Borasulov A.M., Xashimova M.R., Xalilov Sh.X., Abdullaev F.X. (2022) Bodring tizmalarida tupdagi mevalar soni bo'yicha kombinatsion qobiliyatini baholash. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini, maxsus son, Toshkent, 2022.
2. Пивоваров В.Ф., Кононкова П.Ф. Рекомендации и методические указания по селекции и семеноводству огурца. – М.: ВНИИССОК, 1999.
3. О.В.Юрина, В.Ф.Пивоваров, Н.Н.Балашова "Селекция и семеноводство тыквенных культур в России" Москва-1998.
4. Borasulov AM, Tursagatov JM, Ruzimova XK, Maxmatkulov IX, Mengliyev GA, Kuchchiyev OR, Kodirova SHN, Ruzikulova ZU, Xashimova MR, Xalilov SHX, Toshtemirov SYU, Borasulova DD, Chorshanbiyev FM, Nizomov RA (2024) Combining ability analysis of economically important traits in the diallel crosses of cucumber. SABRAO J. Breed. Genet. 56(4): 1367-1376. <http://doi.org/10.54910/sabrao2024.56.4>.